

## TA'LIM SOHASIDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN PEDAGOG-PSIXOLOGNING KASBIY SIFTALARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Rajabov Umar Raximovich*

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim sohasidagi pedagog-psixologning burchi, majburiyatlari va kasbiy sifatlari rivojlanishida namoyon bo'ladigan shaxsdagi irodaviy, emotsional, motivatsion, intellekt sohasining empatiya bilan integrativ shakllanishini tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** determinant, ong, emotsiya, motivatsiya, pedagog-psixolog, kognitiv, iroda, muloqot.

**Аннотация.** В данной статье анализируется интегративное формирование волевой, эмоциональной, мотивационной, интеллектуальной сферы личности с сопереживанием, проявляющееся в развитии обязанностей, обязанностей и профессиональных качеств педагога-психолога в сфере образования.

**Ключевые слова:** детерминант, сознание, эмоция, мотивация, педагог-психолог, познание, воля, общение.

**Annotation.** This article analyzes the volitional, emotional, motivational, integrative formation of the field of intelligence with empathy, which is manifested in the development of duties, obligations and professional qualities of an educator-psychologist in the field of Education.

**Key words:** determinant, mind, emotion, motivational, pedagogical-psychologist, cognitive, will, communication.

**Kirish.** Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda o'zgarishlar bo'lg'usi mutaxassislarning shaxsiy va ijodkorlik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan umumiy va kasbiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu borada yangidan yangi shart-sharoitlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sharoitlarni tadbiiq qilish natijasida yosh mutaxassislar kelajak kasbi haqidagi tasavvurlarning adekvat timsolini shakllantirish, irodaviy harakatlarni rivojlantirish va unda o'z o'rnini topish qobiliyati, ularning shaxsiy imkoniyatlari va xususiyatlariga mos kelishi kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi. Mutaxassislarni kasbga tayyorlashda ularning kelgusidagi o'zi tanlagan kasbi to'g'risida mos tasavvurlarni shakllantirish bilan birga mazkur tasavvurlarni shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishga ta'sir qiladigan omilga transformatsiya qilish zarur bo'ladi[3]. Mazkur jarayonda kasbiy sifatlarning rivojlanishi o'zida hissiy, irodaviy va kognitiv komponentlarni qamrab olgan kognitiv asosni vujudga keltiradi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 30 iyundagi PF-6017-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5153-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021 yil 18 yanvardagi 23-son Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta‘lim sohasidagi pedagog-psixologning burchi va majburiyatlari ishning axloqiy tamoyillarini doirasida V.M. Karimova va uning shogirdlari, o‘smirlardagi aqliy taraqqiyot dinamikasi doirasida E.G‘.G‘oziev va uning shogirdlari, o‘smir avtonomiyasini tadqiq qilish doirasida G‘.B.Shoumarov va uning shogirdlari, o‘smirlarda psixologik himoya mexanizmlari, shuningdek, kasusli vaziyatlarda sportchi emotsional holatini korreksiyalash doirasida Sh.R.Baratov va N.S.Safoev hamda ularning shogirdlari tomonidan muayyan darajadagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Ilmiy tadqiqotchi Ubaydullaev Alisher Hamidullaevich tomonidan yoshlardagi xavf-xatar hissi bilan bog‘liq nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan.

Shunday bo‘lsada, yuqoridagi tadqiqotlarning birortasida ham ta‘lim sohasidagi pedagog-psixologning burchi va majburiyatlari ishning axloqiy tamoyillarini alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan. Bularning barchasi, bizningcha, bugungi kunda har bir kishi uchun xarakterli bo‘lgan koping xulq-atvor va yenga olish strategiyasi doirasidagi o‘ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarni ilmiy-amaliy asosda yanada chuqurroq o‘rganish, tadqiq qilishning muqarrarligini taqozo etmoqda.

M.G.Davletshinning yosh davrlari bo‘yicha darsligida talabalik davrining o‘ziga xos xususiyatlari, kasbiy rivojlanishda unga ta‘sir qiluvchi omillar keng yoritib berilgan. Fikrimizcha, muvaffaqiyatli faoliyatni amalga oshirishda bo‘lajak psixologlarni kasbiy sifatleri rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Sh.R.Barotov O‘zbekistonda psixologik xizmatni tashkil qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, olimning izlanishlarida ta‘lim tizimida psixologik xizmatni tashkil qilish, turli psixologik yo‘nalishlarda, jumladan psixodiagnostika, psixokonsultasiya, psixologik korreksiya ishlarining mazmun mohiyati, psixologik jixatdan tashviqot ishlarini olib borish zarurati yoritib berilgan. Bundan tashqari madaniy oqartuv, psixoprofilaktika kabi tadbirlarni tashkil qilish muammoning echimi topish va amaliy yordam berishda muhim ahamiyatga egadir. Sh.R.Barotov tomonidan psixologik xizmatni tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha ilmiy asoslar ishlab chiqilgan

va amaliyotga keng tadbiiq qilingan [3]. Nazarimizda, olim tomonidan olib borilgan tadqiqot bo'lajak psixologlarning kasbiy sifatlarini aniqlashga va uning namoyon bo'lish xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Shuningdek, O'zbekistonda ijtimoiy psixologiya sohasida katta maktab yaratgan olim V.Karimovning g'oya va asarlarida individning ijtimoiy xususiyatlari, talabaning kasbiy shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy sifatlarning alohida o'rni mavjudligi inobatga olinib, uning shaxs sifatidagi ijtimoiy psixologik tomoni va etnopsixologik xususiyatlariga alohida urg'u berilgan [4]. Haqiqatda, shaxsda rivojlangan ijtimoiy, milliy xususiyatlar uning kasbiy sifatlari rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Z.T.Nishonova shaxs shakllanishida tafakkur jarayonining ahamiyati bo'yicha alohida maktab asoschisi hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida «Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari»ga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, fikrlash faoliyatining shaxs shakllanishidagi roli va ahamiyati keng yoritib berilgan. Mustaqil ijodiy tafakkurning rivojlanishi insondagi ijodiy salohiyatni rivojlantirishi ta'kidlangan. Ushbu ijodiy salohiyat qobiliyatning asosi ekanligi, mazkur xususiyatning rivojlanishida psixologik omillarning ta'siri ahamiyatli ekanligi eksperimental tarzda isbotlangan [5]. Fikrimizcha, amaliyotchi psixolog kasbining muvaffaqiyatli olib borilishi mutaxassisdan tafakkurning kreativligi, egiluvchanligi, mustaqil fikrlashning rivojlanganligini talab qiladi.

Kasbiy sifat va ko'nikmalarni psixodiagnostik metodlar bilan aniqlashda tashxis qilayotgan, shkalali so'rovnomalar konkret natijani ko'rsata olishi, shuningdek validligi va ijobiyliqi tadqiqot uchun ko'zlangan asosiy maqsaddan biri hisoblanadi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilib, shaxs takomillashishi qonuniyatlarini nazariy tahlil qilgan holda, tadqiqot metodlarini tanlashda, kasbiy rivojlanish xususiyatlari aniqlanishi asos qilib olindi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. Девид Байн. Ривожланаётган мамлакатларда ногирон болаларни баҳолаш. Дастур ва кўрсатмалар. Канада. Алберт университетининг педагогика факультети, 1991.
3. Пронина, Е. В. (2016). Необходимые условия реализации инновационных технологий образования в Российских ВУЗах. In Профессиональное образование и занятость молодежи: XXI век. Проблема опережающей подготовки кадров для российской экономики (региональный аспект) (pp. 180-182).
4. Детский голос экспериментальное исследование (ред. В.Н Шацкая. - М., 1970)

### **Elektron adabiyotlar**

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)